Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini tayyorlashda xorijiy tajribalarning o‘rni

Qodirqulova Marjona Qo’chqorboy qizi
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
Email:*qodirqulovamarjona36@gmail.com*

Ilmiy rahbar: **Hakimov Ravshan**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlash bo‘yicha qo‘llanilayotgan zamonaviy malaka talablari va ta’lim standartlari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada xorijiy tajribalar asosida tarbiyachilar uchun yangi malaka talablarini ishlab chiqish va standartlarni belgilashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.
Kalit so'zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, malaka talablari, standartlar, xorijiy tajriba, pedagogik ta’lim, O‘zbekiston, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы изучения и внедрения передового зарубежного опыта в подготовку воспитателей дошкольных образовательных организаций в Узбекистане. В исследовании рассматриваются современные требования к квалификации и образовательные стандарты, применяемые в зарубежных странах для подготовки педагогов дошкольного образования, а также разработаны рекомендации по их адаптации и внедрению в условиях Узбекистана. Освещаются теоретические и практические аспекты разработки новых квалификационных требований и стандартов для воспитателей на основе зарубежного опыта.
Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, квалификационные требования, стандарты, зарубежный опыт, педагогическое образование, Узбекистан, инновации.

Abstract: This article analyzes the issues of studying and implementing the advanced foreign experiences in the training of preschool education educators in Uzbekistan. The research examines modern qualification requirements and educational standards used in foreign countries for the training of preschool educators, and develops recommendations for their adaptation and implementation in the conditions of Uzbekistan. The article highlights the theoretical and practical aspects of developing new qualification requirements and standards for educators based on foreign experience.
Keywords: preschool education, educator, qualification requirements, standards, foreign experience, pedagogical education, Uzbekistan, innovation.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi global miqyosda tezkor o‘zgarishlar va yangilanishlarga duch kelmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida ham bu o‘zgarishlar o‘z aksini topmoqda, chunki uning asosiy maqsadi kelajak avlodni ma’naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga yordam berishdir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini samarali boshqarishning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy tajribaga asoslangan boshqaruv metodlari, sohaning sifatli rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi. Xorijiy tajriba o‘rganish va uning o‘ziga xos boshqaruv uslublarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ko‘plab davlatlar maktabgacha ta’limda yuqori darajadagi pedagogik metodlar va boshqaruv strategiyalariga ega. Ularning tajribasini o‘rganish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda,

maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda samarali usullarni joriy etishga yordam beradi. Masalan, Skandinaviyadagi davlatlar, ayniqsa, Finlyandiya, maktabgacha ta’limda individual yondoshuv va innovatsion metodlarni qo‘llash bilan tanilgan. Xorijiy tajribalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruvini markazlashtirilgan tizimdan erkinlashtirilgan tizimga o‘tkazishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarning ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda ta’lim olishlariga imkon yaratadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion yondoshuvlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, xorijiy tajriba asosida boshqarishning muhim jihatlaridan biridir. O‘z vaqtida yangiliklarni joriy etish, bolalarning o‘qish va o‘rganish jarayonlarini yanada samarali qilish imkonini beradi. Xorijda, masalan, Kanada va Niderlandiyada ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar va interaktiv materiallar orqali yanada jonlantirgan holda boshqarishning muvaffaqiyatli misollari mavjud. Xorijiy tajriba asosida bolalar bilan ishlashda, masalan, pedagogik yondoshuvni individuallashtirish va guruh bilan ishlashni birlashtirish, samarali natijalarga olib keladi. Bu yondoshuvlar, bolalarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi. Zamonaviy sharoitda, xorijiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali boshqaruv tizimlaridan foydalanishning yana bir muhim jihati, bu boshqaruv tizimlarining doimiy ravishda takomillashuvi va innovatsion metodlarni qo‘llashdir. Yevropadagi bir qator mamlakatlar (masalan, Germaniya, Shvetsiya) o‘zlarining maktabgacha ta’lim tizimlarini markazlashtirilgan boshqaruvdan erkin va mustaqil boshqaruv tizimlariga o‘zgartirishgan. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasalariga ko‘proq moslashuvchanlik va innovatsion faoliyat olib kelgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik kadrlarning doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab turishlari hamda ta’lim jarayonida yangi metodlarni qo‘llashga tayyor bo‘lishlari zaruriyatga aylangan. Yangi pedagogik yondoshuvlar, masalan, STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga oid) ta’limi yoki qo‘llaniladigan san’at va madaniyat yondoshuvlari, bolalar uchun ko‘plab rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Xorijda, maktabgacha ta’lim kadrlarini malakasini oshirish, ta’lim tizimining samaradorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Xususan, o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish dasturlari orqali yangi metodlarga, pedagogik innovatsiyalarga tayyorlash, ta’limda sifatni oshirishga yordam beradi. Finlyandiya, Shvetsiya va Daniyada o‘qituvchilarni doimiy ravishda malakali kadrlar sifatida tayyorlash uchun davlat tomonidan turli dasturlar va seminarlar tashkil etiladi (Sahlberg, 2013). Shuningdek, Xitoyda va Janubiy Koreyada pedagogik kadrlarni yangilash va yangi ta’lim metodlarini joriy etish uchun mahalliy universitetlar bilan hamkorlikda turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimlarining boshqaruvini takomillashtirishga xizmat qiladi (Lee, 2019).

Maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirish borasida so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda, ayniqsa, UNESCO, UNICEF va OECD kabi tashkilotlar maktabgacha ta’limning sifat ko‘rsatkichlari, pedagogik yondashuvlar va bolalar rivojlanishini baholash mezonlariga oid keng qamrovli hisobotlar va tavsiyalarni e’lon qilgan. Masalan, OECD (2017) hisobotida maktabgacha ta’limda erta rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholash, ta’lim muhitini optimallashtirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha samarali Finlandiya tajribasi ko‘plab tadqiqotchilar (Hujala, 2014; Puroila, 2019) tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bunda bolaga yo‘naltirilgan yondashuv, erkin o‘yinlar orqali o‘qitish va o‘qituvchining muhim roli asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Yaponiyada esa bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilishi, sinfdan tashqari faoliyatlarning keng joriy etilgani (Tobin et al., 2009) alohida ahamiyatga ega. Singapurning maktabgacha ta’lim modeli, UNICEF va World Bank tahlillarida qayd etilishicha, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik, standartlashtirilgan dasturlar va natijaviy monitoring tizimi bilan ajralib turadi. Shvetsiyada esa tenglik, gender balansi va inkluziv ta’lim prinsiplariga asoslangan tizim o‘rnatilgan bo‘lib, u zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan(Moss, 2010).

Shvetsiya tajribasi: Maktabgacha ta'lim tizimi – bu zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligi va uning rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Aynan shu sababli rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor beradilar, zero bu aholining ishchi kuchiga barqaror jalb etilishiga, shuningdek bolalarning tegishlicha jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shvetsiyadagi bolalar bog‘chalari 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni qabul qiladi va 6:00 dan 19:00 gacha xizmat ko‘rsatadi. Shvetsiya maktabgacha muassasasida ta'lim bolalarda bilimlar va qadriyatlar hamda butun umrlari davomida o‘qishga istak shakllanishiga qaratilgan. Asosiy e'tibor birgalikdagi o‘yinlar, bag‘ri kenglik va boshqalarga e'tiborlilik kabi qadriyatlarga qaratiladi. Gender pedagogika tobora kuchli dolzarblik kasb etmoqda – bolalarda, jinsiga qaramay, barobar imkoniyatlar bo‘lishi uchun, o‘quv jarayonida gender stereotiplariga qarshi ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, Shvetsiyada bolalar bog‘chalari tarbiyachilarining taxminan 5 foizini erkaklar tashkil qiladi. Bu kam bo‘lsa-da, harqalay, boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkich. MTTda pedagog bo‘lish uchun oliy ma'lumot va Ta'lim vazirligidan litsenziya bo‘lishi kerak. Bolalar parvarishi bo‘yicha xodimlar o‘rta-maxsus ma'lumotga ega bo‘ladilar va kundalik taomillar uchun javobgarlikni zimmalariga oladilar.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini tayyorlashda xorijiy tajribalarni joriy etish, faqatgina tarbiyachining malakasini oshirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu O‘zbekistonning butun ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, bolalarimizga xalqaro standartlarga mos ta’lim-tarbiya berish va mamlakatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratish demakdir. Zamonaviy, malakali va kreativ tarbiyachilar bugungi jamiyatimiz uchun eng qimmatli sarmoya bo‘lib, kelajak avlodning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xorijiy ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun malaka talablarini yangilash va standartlarni joriy etish, O'zbekistonda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni kelajak uchun sifatli tayyorlash va milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim qadam bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning kelajagi bo'lgan yosh avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahtiala, E. (2020). Finnish Early Childhood Education and Care: Key Developments and Recent Reforms. Helsinki: Finnish Education Association.

2. Ziegler, H. (2016). Early Childhood Education in Germany and Austria: A Comparative Study. Journal of Early Childhood Education, 24(2), 120-134

3. Berdiyeva M. Maktabgacha ta’lim tashkilotining eng rivojlangan davri
va bu sohaning hayotimizdagi o‘rni. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2026-yil

4. Parker, M. (2017). STEM Education in Early Childhood: A Case Study from the United States and Canada. Journal of Education and Development, 9(4), 78-90.

5. O‘rozmetova, Z. R. qizi. (2023). “Finlyandiya maktabgacha ta’lim Education tizimining o‘ziga xosliklari”. Educational Research in Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 275–278.

6. Berdiyeva M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning ahamiyati. Toshkent, 2024-y